



“AVO bank” AJ Sodiqlik dasturining umumi shartlari

2025 yil 23 sentabrdagi 31/25-sonli “AVO bank” AJ Boshqaruvi majlisi Bayoni bilan tasdiqlangan

2025-yil 6 oktabr kuchga kiradi

“AVO bank” AJ Sodiqlik dasturining umumiyl shartlari

1. Atamalar va ta'riflar

Aksiya – bu dastur doirasida amalga oshiriladigan marketing va/yoki reklama tadbiri bo'lib, Mijozning Bank va Bank Hamkorlariga bo'lgan sodiqligini shakllantirish va oshirishga qaratilgan bo'lib, uning doirasida Dastur Ishtirokchisi ma'lum ishlarni amalga oshirgandan so'ng Bonuslar taklif qilinadi.

Bank – “AVO bank” aksiyadorlik jamiyati (“AVO bank” AJ), STIR 207257279, ro'yxatdan o'tgan raqami 16/1, manzil: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mirobod tumani, Nukus ko'chasi, 29A uy, telefon +998 78 888 78 87, elektron pochta manzili: info@avo.uz, Dastur tashkilotchisi hisoblanadi.

Bonus – Bank tomonidan mijozning mobil ilovasidagi Bonus hisobraqamiga virtual ekvivalentda 1 bonus so'm = 1 o'zbek so'mi miqdorida hisoblangan va o'tkazilgan bonus ballar.

Bonus hisobi – Dasturda ishtirok etish boshlangan sanada Dastur ishtirokchisiga Bank axborot tizimida ochilgan, Bank hisobidan tashqari hisobvarag'i.

Bonuslar To'lovi – Dastur Ishtirokchisi Bonus hisobraqamidan Bonuslar yechilib, shu zahoti Mijoz Hisobraqamiga pul mablag'larining Umumiyl shartlarga muvofiq o'tkazib berilishi.

Bosh Shartnoma – “AVO Bank” Ajda jismoniy shaxslarga keng qamrovli bank xizmatlari ko'rsatish bo'yicha Bosh shartnoma.

Kartani foydalanish uchun berish to'g'risidagi shartnoma – Bank va Mijoz o'rtaida tuzilgan Kartani chiqarish va unga xizmat ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma.

Karta – "AVO platinum" Tarif rejasi bo'yicha Bank tomonidan Mijozga (Karta valyutasi-o'zbek so'mlari) Kartani foydalanish uchun taqdim etish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq chiqarilgan virtual, plastik va/yoki raqamli kartasi.

Bankning mijoji (Mijoz) – Dastur Ishtirokchisi – Bank bilan Bosh shartnoma tuzgan va Bankning Mobil ilovasida raqamli identifikatsiyadan o'tgan va Bank Kartasini olgan layoqatli jismoniy shaxs.

Bankning Mobil ilovasi – Bank va Foydalanuvchi va/yoki Mijozning o'zaro ta'sirini, shu jumladan ma'lumot almashish, Ariza/Arizalarni yuborish (texnik imkoniyat mavjud bo'lsa) va Bankning xohishiga ko'ra alohida operatsiyalarni amalga oshirishga imkon beradigan mobil qurilma (smartfon, planshet va boshqalar) uchun ilova.

Umumiyl shartlar – Bankning Sodiqlik dasturining shartlarini belgilaydigan ushbu hujjat.

Xarid -Dastur Ishtirokchisi tomonidan Kartadan foydalangan holda bajarilgan tovar va xizmatlar to'lovi bo'yicha operatsiya.

Qoidalari – Aksiyalar, tanlovlari va boshqa rag'batlantiruvchi tadbirlarni o'tkazish qoidalari, Bank Mijozlarining Aksiyalar, tanlovlari va boshqa rag'batlantiruvchi tadbirlarda ishtirok etish shartlari va tartibini belgilaydi.

Sodiqlik dasturi (Dastur) - Bank mijozlarining sodiqligini ta'minlash maqsadida to'lanadigan va/yoki taqdim etiladigan Bonuslarni qo'llash, hisoblash va ulardan foydalanish qoidalari.

Bank Sayti – Bankning Internetdagi rasmiy veb - sayti: www.avoz.uz.

Hisobvaraq – Dastur Ishtirokchisiga Karta chiqarilgan Kartani foydalanish uchun taqdim etish to'g'risidagi Sharhnomaga asosida Bankda ochilgan joriy bank hisobvarag'i.

Umumiy shartlarda bosh harf bilan ishlataladigan boshqa atamalar Bosh sharhnomadagi kabi ma'noga ega.

2. Umumiy qoidalari

- 2.1. Dastur Bankning joriy Mijozlarining sodiqlik darajasini oshirish, Bankka yangi mijozlarni jaib qilish, bank mahsulotlari va Bankning Mobil ilovasidan foydalanishni rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish tartibini belgilaydi.
- 2.2. Dastur 2023-yil 1-dekabrdan boshlab cheklanmagan muddatda amal qiladi.
- 2.3. Umumiy shartlar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367 va 369-moddalariga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi. Ommaviy ofertani qabul qilish muddati cheklanmagan, ommaviy ofertani muddatidan oldin qaytarib olish imkoniyati nazarda tutilmagan.
- 2.4. Mijozning Bosh sharhnomaga qo'shilishi, Bankning mobil ilovasida raqamlı identifikasiyadan o'tishi va bank kartasini olishi va Umumiy shartlarni to'liq va so'zsiz Mijoz tomonidan qabul qilinishi (aksept qilinishi) hisoblanadi.
- 2.5. Umumiy shartlar bank veb-saytida joylashtiriladi.

3. Sodiqlik dasturi doirasidagi tadbirlar

- 3.1. Bank Dastur doirasida tadbirlar o'tkazish qoidalari Aksiyalar, tanlovlari va boshqalar shaklda tasdiqlaydi. Qoidalari bilan Bonuslarni hisoblash, berish va foydalanish tartibi belgilanadi.

4. Bonuslarni berish tartibi

- 4.1. Bank Dastur Ishtirokchilariga Umumiy shartlarga muvofiq quyidagi miqdorda Bonuslar berishga haqli:
 - 4.1.1. Kredit bo'yicha taqdim etilgan mablag'lar bilan to'langan Xarid summasining 1% (bir foiz);
 - 4.1.2. Kredit bo'yicha taqdim etilgan mablag'lar bilan Plastik kartadan to'langan birinchi Xarid summasining 100% (yuz foiz), ammo 100 000 (yuz ming) Bonusdan oshmagan holda. Bonus berish bir marta amalga oshiriladi va 2 000 (ikki ming) so'mdan kam Xarid uchun qo'llanilmaydi;
 - 4.1.3. Alovida toifadagi va savdo nuqtalarida Kredit bo'yicha taqdim etilgan mablag'lar bilan to'langan Xaridlar uchun Bank Dastur Ishtirokchilariga oshirilgan miqdorda Bonuslar taqdim

etishga haqli. Bunday toifalar va savdo nuqtalari, shuningdek oshirilgan miqdordagi Bonuslar amal qilish muddati va miqdori Mobil ilovada ko'rsatiladi;

- 4.1.4. Kredit bo'yicha taqdim etilgan mablag'lar hisobidan amalga oshirilgan "Karta faolligini tekshirish" xizmati uchun to'lovga 1000 (bir ming) Bonuslar.
- 4.2. Bank Dastur Ishtirokchilariga Bonuslarni Qoidalarga muvofiq va Dastur doirasida o'z xohishiga ko'ra hisoblash huquqiga ega.
- 4.3. Dastur doirasida Xaridlarga quyidagilar kirmaydi:
 - 4.3.1. Bank Tariflariga muvofiq Imtiyozli operatsiyalar ro'yxatiga kirmaydigan operatsiyalar;
 - 4.3.2. Bank komissiyalari to'lovi, komissiyalar uchun Bonus To'lash Umumiy qoidalar va Aksiya o'tkazish qoidalarida to'g'ridan -to'g'ri nazarda tutilgan hollar bundan istisno;
 - 4.3.3. Bank Mobil ilovasining "To'lovlar" bo'limidagi operatsiyalar (aloqa xizmatlari, davlat xizmatlari, kommunal xizmatlar to'lovi va boshqalar)
- 4.4. Bank Dasturning barcha Ishtirokchilari uchun yoki ba'zi Dastur Ishtirokchilariga individual tartibda Bonus berish limitini belgilashga haqli.
- 4.5. Bonuslarni Bonus hisobvarag'iga o'tkazishda Bank tomonidan Bonuslar eng yaqin butun qiymatgacha yaxlitlanadi.
- 4.6. Kredit bo'yicha taqdim etilgan mablag'lar hisobidan amalga oshirilgan va Karta hisobvarag'ida aks ettirilgan Xaridlar bo'yicha Bonus hisobvarag'iga Bonuslar hisoblanishi ular Bank tomonidan qayta ishlanganidan so'ng amalga oshiriladi.
- 4.7. Kredit bo'yicha taqdim etilgan mablag'lar bilan to'langan Xarid va o'z mablag'lari bilan Karta Hisobvarag'ini to'ldirish bir Operatsiya kunida amalga oshirilsa, Bank Bonus hisobvarag'iga Bonus hisoblamaslikka haqli.
- 4.8. Dastur doirasida Mijozga berilishi mumkin bo'lgan Bonuslarning maksimal miqdori oyiga 500 000 (besh yuz ming) Bonus.

5. Bonuslarni to'lash tartibi

- 5.1. Bonuslarni to'lash Bank tomonidan Dastur Ishtirokchisi so'roviga ko'ra Bank Mobil ilovasi orqali yoki Bank ixtiyoriga ko'ra Umumiy qoidalarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.
- 5.2. Dastur Ishtirokchisi so'roviga ko'ra Bonuslarni To'lash uchun Bonuslarning eng kam miqdori 150 000 (bir yuz ellik ming) Bonuslarni tashkil etadi. Bank ko'rsatilgan eng kam miqdorni Bank Mobil ilovasida o'zgartirishi mumkin.

O'tkazma Ishtirokchi tomonidan tanlangan Hisobraqamga amalga oshiriladi.

Bonuslarni o'tkazish mumkin bo'lgan Hisobraqamlar ro'yxati Bank tomonidan belgilanadi va Bank Mobil ilovasida ko'rsatiladi.

- 5.3. Bank Dastur Ishtirokchisining so'rovisiz mustaqil ravishda Bonuslar To'lovini amalga oshirishga haqli. Avtomatik To'lov miqdori va shartlari Bank tomonidan belgilanadi.
- 5.4. Bonuslarni to'lashda Bank Mijozning Bonus hisobvarag'ining mavjud balansini Bonus To'lovi summasiga kamaytiradi
- 5.5. Agar Mijoz Bonuslarni ular berilgan sanadan boshlab 6 (olti) oy davomida ishlatmasa, Bank ko'rsatilgan muddati o'tgan Bonuslarni bekor qilishga haqli.
- 5.6. Dastur Dastur Ishtirokchisi uchun Bonuslarni Dasturning boshqa Ishtirokchilariga o'tkazish imkoniyatini, shuningdek Bonuslarni Umumiy shartlarda ko'rsatilgan usullardan boshqa qandaydir usullarda foydalanishni nazarda tutmaydi.
- 5.7. Bonuslar faqat hisob maqsadlarida ishlatiladi, to'lov mablag'i hisoblanmaydi va bo'lishi mumkin emas, naqdashtirilishi va/yoki uchinchi shaxslarga berilishi mumkin emas.
- 5.8. Bank jumladan quyidagi holatlarda, lekin ular bilan cheklanmagan holda Dastur Ishtirokchisini oldindan xabardor qilmasdan va sababini tushuntirmsandan Bonuslar To'lovini bir tomonlama to'xtatib turish, cheklash, shuningdek to'xtatishga haqli:
 - 5.8.1. Dastur Ishtirokchisi tomonidan Bosh shartnoma va/yoki Dastur shartlarini buzgan taqdirda;
 - 5.8.2. Dastur Ishtirokchisi tomonidan Kredit bo'yicha Majburiy to'lovni to'lash majburiyatini buzgan taqdirda;
 - 5.8.3. Dastur Ishtirokchisi Hisobraqamiga band qo'yilgan taqdirda;
 - 5.8.4. qonunchilikda nazarda tutilgan holatlarda Operatsiyalar Bloklangan yoki to'xtatib qo'yilgan taqdirda.

6. Cheklar

- 6.1. Bosh shartnoma va/yoki Kartani foydalanish uchun berish to'g'risidagi shartnoma bekor qilinganda, Sodiqlik dasturi bo'yicha foydalanimagan/olinmagan barcha Bonuslar bekor qilinadi va Bank tomonidan har qanday shaklda tiklanishi, qoplanishi va/yoki to'lanishi shart emas.
- 6.2. Agar Mijoz:
 - 6.2.1. Bosh shartnoma, Dastur va/yoki bankning boshqa hujjatlari shartlariga riosa qilmasa, va/yoki
 - 6.2.2. Firibgarlik harakatlarini sodir etsa, va / yoki
 - 6.2.3. Dastur doirasida Mijozga berilgan qandaydir imtiyoz va/yoki Bonuslarni suiste'mol qilsa, va / yoki
 - 6.2.4. Bankka chalg'ituvchi yoki noto'g'ri ma'lumot bersa, va / yoki
 - 6.2.5. Bankning biznes obro'siga putur yetkazadigan ma'lumotlarni tarqatsa, va / yoki
 - 6.2.6. Boshqa Foydalanuvchilar va/yoki Mijozlarni chalg'itsa

Bank har qanday mijozni Dastur Ishtirokchilari orasidan ogohlantirmasdan va sabablarini tushuntirmasdan chiqarib tashlash huquqiga ega.

- 6.3. Quyidagi hollarda Bank Dastur ishtirokchisiga xabar bermasdan va tushuntirmasdan bonuslarni to'lamaslik va/yoki Bonuslarni to'liq yoki qisman bekor qilishga haqli:
- 6.3.1. Bank tomonidan Dastur shartlarini suiste'mol qilish alomatlari aniqlansa, va / yoki
 - 6.3.2. Dastur Ishtirokchisi tomonidan Bosh shartnoma va/yoki Bankning boshqa hujjatlari shartlarini buzilsa, va/yoki
 - 6.3.3. Agar Bank Dastur Ishtirokchisining xatti-harakatlarini / harakatsizligini vijdonsiz va/yoki boshqa yo'll bilan Dasturda ishtirok etish shartlarini buzgan deb hisoblasa, va / yoki
 - 6.3.4. Kredit va Karta bo'yicha Majburiy to'loymi to'lash majburiyatining Mijoz tomonidan to'lov sanasidan boshlab 60 (oltmis) kalendar kuni va undan ortiq muddatda bajarilmasligi, va/yoki
 - 6.3.5. Agar dastur ishtirokchisi bankning xohishiga ko'ra yetarlicha faoliyat ko'rsatmasa va/yoki Bosh shartnoma va/yoki Umumiy qoidalarga muvofiq bank mahsulotlaridan foydalanish shartlarida nazarda tutilgan zarur harakatlarni bajarmasa, va/yoki
 - 6.3.6. Agar Bonuslar yanglish, shu jumladan Bank Mobil ilovasidagi texnik nosozlik oqibatida berilgan bo'lsa, va / yoki
 - 6.3.7. Agar Tovar qaytarilishi yoki xizmatdan bosh tortish munosabati bilan Xarid summasi Aksiya Ishtirokchisi Hisobraqamiga to'liq yoki qisman qaytarilgan bo'lsa.
- 6.4. Agar berilgan Bonuslar bekor qilinishi oqibatida Dastur Ishtirokchisi Hisobvarag'ida manfiy balans yuzaga kelsa, keyingi Bonuslar uni so'ndirish uchun ishlatilinadi.
- 6.5. Bank Bosh shartnomada nazarda tutilgan usullarda tegishli xabarnoma joylashtirish yo'li bilan Dasturning barcha Ishtirokchilariga to'liq yoki qisman Bonuslarni berishni to'xtatishi va/yoki Bonuslarni bekor qilishga haqli.
- 6.6. Bonus berish bilan bog'liq har qanday shikoyat bo'lgan taqdirda Bankning javobgarligi Bonuslarning lozim bo'lgan miqdorini Dastur Ishtirokchisining Bonus hisobvarag'iga o'tkazib berish bilan cheklanadi.

7. Boshqa qoidalar

- 7.1. Bank Umumiy shartlarga bir tomonlama tartibda o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritishga haqli. Umumiy shartlarga kiritilayotgan o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar haqida ma'lumot Bosh shartnomada nazarda tutilgan usullarda o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kuchga kirish sanasidan kamida 10 (o'n) kalendar kun oldin joylashtiriladi.
- 7.2. Mijoz Umumiy shartlardagi o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar mavjudligini mustaqil kuzatishi shart.

- 7.3. O'zgarishlar va/yoki qo'shimchalar kuchga kirishi sanasidan keyin Mijoz Kartani foydalanishga berish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha xizmatlar va Mahsulotlardan foydalanishda davom etsa, ushbu holat Mijozning kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarga so'zsiz va to'liq rozi ekanligini anglatadi.
- 7.4. Dastur kollegial boshqaruv organlari va Bankning boshqa xodimlariga o'z mansab mavqeidan foydalangan holda AVO bank AJning manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va tartibga solish siyosati talablarini hisobga olgan holda shaxsiy ustunliklarni taqdim etishni yoki uchinchi shaxslarga, shuningdek, bank bilan bog'liq shaxslarga Dasturning boshqa Ishtirokchilariga nisbatan bunday ustunlikni taqdim etish uchun foydalanishni nazarda tutmaydi.
- 7.5. Dastur doirasida beriladigan Bonuslar Bank bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan shaxslarga lavozim majburiyatlarini bajarganligi uchun mukofot sifatida to'lanmaydi, shuningdek Tovar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lov sifatida to'lanmaydi yoki moddiy yordam sifatida taqdim etilmaydi.
- 7.6. Bank Dasturda ishtirok etish bilan bog'liq holda Dastur Ishtirokchisi uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar, xarajatlar va boshqa zararlarni qaytarmaydi yoki qoplamaydi.
- 7.7. Dastur ishtirokchisi Umumiyligi shartlarga qo'shilish Bank tomonidan Bonuslarda ifodalangan moddiy naf tarzidagi daromadidan soliq ushlab qolmasligi to'g'risida Bank nomiga yozma ariza yuborishga tenglashtirilishiga rozilik bildiradi, Ishtirokchi esa bunday daromadni mustaqil ravishda deklaratsiya qilish va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tegishli soliqlarni to'lash majburiyatini oladi. Dasturda ishtirok etish bilan bog'liq barcha nizolar va kelishmovchiliklar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda sudda ko'rib chiqiladi.
- 7.8. Umumiyligi shartlarda nazarda tutilmagan barcha jihatlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.
- 7.9. Dastur ishtirokchisi umumiyligi shartlarni bilishi va ularga rioya qilishi shart.